

Date: 25th April-2025

KEKSALARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISHDA XORIJ TAJRIBASINI
O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASHNING IMKONIYATLARI

Sodiqova Aziza Jovli qizi

O‘ZMU talabasi

Annotatsiya. Bugungi kunda O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy islohotlar jarayonida aholining turli qatlamlarini, xususan, keksalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy himoyasini ta‘minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan “Inson qadri uchun” tamoyili asosida keksalar hayot sifatini oshirish, ularning ehtiyoj va manfaatlarini qondirish bo‘yicha bir qator huquqiy, iqtisodiy va ma‘naviy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur maqolada keksalarni ijtimoiy himoya qilish borasidagi xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning amaliy imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy himoya tizimi, pensiya tizimi, gerontologik xizmatlar, xorij tajribasi, ijtimoiy qo‘llab - quvvatlash, keksalar muammolari, ijtimoiy texnologiya.

Barchangizga ma‘lumki, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hisoblanadi. Keksalarni e‘zozlash, ularga munosib hurmat ko‘rsatish masalasi Yangi O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Keyingi yillarda amalga oshirilgan o‘zgarishlar natijasida keksa avlod vakillarining moddiy va maishiy sharoitlari yaxshilandi, ularning jamiyatdagi nufuzi oshdi. Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda nuroniy otaxon va onaxonlarimizning ulkan tajribasidan unumli foydalanib, ma‘naviy muhit barqarorligida hamda yosh avlodni tarbiyalashda ularning ishtiroki ortib bormoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida aholining qarish jarayoni dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Aholi tarkibida keksalar sonining ortishi nafaqat demografik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va sog‘liqni saqlash sohalarida ham muhim o‘zgarishlarni talab qilmoqda.

Keksalarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha hozirgi kunda dunyo bo‘ylab rivojlangan mamalakatlar modellarni o‘rganishda bir qancha xorij modellari bilan tanishib chiqamiz. Birinchi model Shvetsiyada qo‘llanilayotgan model bo‘lib, unga ko‘ra, davlat ijtimoiy himoya sohasidagi barcha mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Ijtimoiy himoya va ijtimoiy kafolatning muhim yo‘nalishini pensiya bilan ta‘minlashga oid chora-tadbirlar tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda pensiya yoshi turlicha belgilangan. Italiyada erkaklar uchun – 60 yosh, ayollar uchun – 50 yosh, Fransiya erkak va ayollar uchun bir xil – 60 yosh, AQSh, Germaniya, Shvetsiya, Kanada va Ispaniyada har ikki jins uchun ham 65 yosh qilib belgilangan.

Ikkinchi model Avstriya, Germaniya, Italiya, Fransiya qo‘llaniladigan konservativ model bo‘lib, unda pensiyani hisoblab chiqishda ish haqi ko‘rsatkichini



Date: 25th April-2025



o'zgartirish tartibi mavjud. Shu bilan birga, ish haqining umumiy narxga nisbatan tez o'sishi va pensionerlarning turmush darajasi ishlaydigan fuqarolarnikiga muvofiq ravishda ortib borishi zarurligi e'tiborga olinadi. Uchinchi model AQSh, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniyada qo'llaniladigan liberal model bo'lib, unga asosan, pensiyani hisoblab chiqishda yashash sharoiti ko'rsatkichidan foydalaniladi. Bunday holda pensiya va ish haqi darajasi o'rtasidagi tafovutni kamaytirish maqsadida iste'mol mollari narxining oshishi munosabati bilan pensionerlar ko'radigan zararni qoplaydigan miqdorda pensiyaga qat'iy qo'shimchalar qo'shiladi. Bu usul ijtimoiy muhofazaning bir shakli bo'lib hisoblanishi ilmiy asoslangan. Rivojlangan mamlakatlarda umumiy ijtimoiy sug'urta tizimidan tashqari xususiy tartibda to'lanadigan qo'shimcha pensiyalar ham keng qo'llaniladi. Fransiyada barcha yollanma ishchilar shunday qo'shimcha ta'minot tizimi bilan qamrab olingani aniqlangan. Pensiyasi miqdori turmush kechirishga etmaydigan pensionerlar alohida himoyalangan bo'lib, muhtojlarga yordam beruvchi jamiyat va jamg'armalar idoralarning e'tibori bevosita ularga qaratilgan.[1]

Hozirgi vaqtda zamonaviy rus jamiyatida keksa avlod va umuman jamiyat hayotida ko'plab yangi muammolar paydo bo'lishini belgilovchi zamonaviy rus jamiyatining qarish jarayoni jadal rivojlanyapti. Rossiya statistika ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya Federatsiyasida pensiya yoshidagi 30 milliondan ortiq kishi bor, bu mamlakat aholisining beshdan bir qismini tashkil qiladi. 2016-yilgacha bo'lgan davrda mamlakat aholisining yosh tarkibida keksalar sonining barqaror o'sishi prognoz qilinmoqda.

Keksalar guruhiga o'tish chegarasi JSST ekspert qo'mitasi qaroriga ko'ra 60 yoshdir. Hozirgi vaqtda Rossiya ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarida tub o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda, ularning salbiy oqibatlari aholining barcha qatlamlariga va birinchi navbatda, eng zaif qatlamlarga keksa avlod vakillariga ta'sir ko'rsatdi.[2] Rossiyada ijtimoiy himoya tizimining stasionar muassasalari, ya'ni keksa va nogironlar uchun uy-internatlar keng tarqalgan bo'lib odatda bu yerda parvarish va tibbiy xizmatga muhtoj bo'lgan keksa va nogironlar yashaydi. Uy-internatda yashashning bir qancha sabablar tahlil qilamiz. Shuningdek,

Ijtimoiy sabablar: yashash joyining yo'qligi yoki yo'qolish xavfi, minimal pensiya miqdori, yashash joyiga yaqin ijtimoiy xizmatlarning yo'qligi.

Psixologik sabablar: Oila a'zolari bilan xarakterlar mos kelmasligi va shu bilan birga, oilada yaqinlar bilan birga yashashning imkonsizligi.

Mediko-ijtimoiy sabablar: qariyalik, doimiy tibbiy kuzatuv va parvarishga ehtiyoj.

-Uy-internatning asosiy vazifalari quyidagilardir:

-Keksa va nogironlarni moddiy-uy-joy ta'minoti, ular uchun uyga yaqin yashash sharoitlarini yaratish;

-Parvarishni tashkil etish, tibbiy yordam ko'rsatish;

-Ularning ijtimoiy mehnat rehabilitatsiyasini amalga oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etishdan iborat.

"Ijtimoiy himoya tizimining stasionar muassasalarida yangi shakllardan biri gerontologik markazlardir. Hozirgi vaqtda ular faqatgina Rossiya Federatsiyasining yirik shaharlarida (Stavropol, Samara, Novosibirsk, Yaroslavl va boshqalar) faoliyat

Date: 25th April-2025



ko'rsatmoqda" Bunday markazlarda uy-internatlardan farqli o'laroq, asosan reabilitatsiya faoliyati amalga oshiriladi. 1980-yillarning o'rtalarida boshlangan va sovet davlat-siyosiy tizimining yemirilishi bilan birga 90-yillarda davom etgan inqiroz barcha davlat institutlariga ta'sir qildi. Aholining turmush darajasi keskin pasaygan, ishsizlik, qashshoqlik, ish haqi iste'mol bozori narxlaridan orqada qolayotgan bir sharoitda, postsovet davrida birinchi marta har xil turdagi zo'ravonlik harakatlari, shu jumladan aholining keksa qismiga nisbatan keskin o'sdi.[3] Hozirgi inqiroz sharoitida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan holda, ijtimoiy hayotning gerontologik sektoridagi ishlarning hozirgi holatini qayta ko'rib chiqish va keksa aholining ijtimoiy mavqeini yanada aniqroq ifodalash zarurati yuzaga keladi. Shu munosabat bilan tadqiqotlar yangilanmoqda.

Geriatrya va gerontologiya sohalari keksa yoshdagi odamlarning sog'ligini o'rganish va ularga tibbiy yordam ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Geriatrya tibbiyotning keksa odamlar uchun maxsus qismidir, bu esa ularning fiziologik va psixologik ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga va davolashda yondashuvlarni takomillashtirishga yordam beradi.

Altsgeymer kasalligi haqiqatan ham geriatrya sohasida o'rganilayotgan asosiy kasalliklardan biridir, chunki bu kasallikning eng ko'p uchraydigan yosh guruhi 65 yosh va undan katta odamlar bo'lib, ular orasida kognitiv funksiyalarni pasayishi va xotira bilan bog'liq muammolar tez-tez uchraydi.

Gerontologiya esa, ko'proq fan sifatida, umuman keksa yoshdagi odamlarning biologik, psixologik va ijtimoiy o'sish va rivojlanish jarayonlarini o'rganadi. Bu soha aholining qarishi va yoshlarning o'zgarishlariga qarshi qanday ijtimoiy va tibbiy strategiyalarni ishlab chiqish lozimligi haqida ilmiy izlanishlarni olib boradi.

Rossiyada keksa fuqarolarni qo'llab-quvvatlash va ularning hayot sifatini yaxshilash uchun tashkil etilgan geriatrik va gerontologik markazlar, shuningdek reabilitatsiya markazlari muhim rol o'ynaydi. Bu markazlar, ayniqsa, keksa odamlarning sog'lig'ini saqlash va ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy yordamni taqdim etish orqali, ularning faolligini va mustaqilligini saqlab qolish maqsadida samarali ishlamoqda.

Geriatrik markazlar nafaqat tibbiy yordam, balki keksalar uchun psixologik, ijtimoiy va kasbiy xizmatlarni ham taqdim etadi. Bu markazlar, tibbiyot sohasida litsenziyaga ega bo'lib, zarur hollarda keksalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, reabilitatsiya, individual va guruh terapiyasini o'tkazish imkonini beradi. Bundan tashqari, markazda keksalar uchun kunlik yordam, to'g'ri ovqatlanish, dori-darmonlar, shuningdek, jismoniy faollikni oshirish uchun maxsus mashqlar, sport va dam olish joylari taqdim etiladi.

Qariyalar uyidan farqli o'laroq, geriatrik markazlar, ko'proq tibbiy yondashuvni va keksalarning sog'lig'ini yaxshilashga qaratilgan kompleks yordamni taqdim etadi. Qariyalar uyi esa asosan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga qaratilgan va unda tibbiy yordam bo'lishi shart emas. "Rossiya federatsiyasida xam pensionerlar uchun reabilitatsiya markazlari tashkil etilib, ularga tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatilmoqda. Bu markazlar pensionerlarga jamiyatga qayta integratsiyalashish, ularning

Date: 25th April-2025

faolligini oshirish, ularni ijtimoiy hayotga qaytarish uchun zarur sharoitlarni yaratish orqali, nafaqat fiziologik, balki ruhiy holatini ham yaxshilashga qaratilgan”

Shuningdek, ayollar uchun 55 yoshdan, erkaklar uchun esa 60 yoshdan oshgan ishsiz fuqarolarni himoya qilish, davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Bu yoshdagi pensionerlarga tibbiy yordam, psixologik qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy yordam, yuridik xizmatlar va kasbiy tayyorlash kabi xizmatlarni taqdim etish, ularning jamiyatda yanada faol va mustaqil bo'lishiga yordam beradi. Keksalar uchun maxsus markazlar va xizmatlar, ularning hayot sifatini yaxshilashda va jamiyatda o'z o'rinlarini saqlashda muhim ahamiyatga ega. [4] Pensionerlarni reabilitatsiya qilish choralari quyidagi toifalarga bo'linadi. Ijtimoiy reabilitatsiya chora-tadbirlari,

Professional reabilitatsiya chora-tadbirlari,

Tibbiy reabilitatsiya kabi xizmatlarni o'z ichiga oladi.

“Golden Age Positive People Club 2017 yilning yanvar oyida ochilgan. Klub shiori: “Keksalik bizni uyda ushlaymaydi”. Nafaqaga chiqqandan keyin hayot endigina boshlanadi, degan fikr baquvvat, quvnoq keksa odamlar bilan yaqin aloqada bo'lishdan kelib chiqadigan bayonotdir. To'garakning keksalar talabiga javob beradigan ish rejasi, shinam binolari “oltin” asr vakillarining bilim, ko'nikma va tajriba almashishi uchun qulay sharoit yaratmoqda. To'garak a'zolari uchun fitnes, raqs, davolash va profilaktik gimnastika to'garaklari tashkil etilgan. Chang'i sayohatlari, sayrlar, qiziqarli odamlar bilan uchrashuvlar, dam olish oqshomlari, tug'ilgan kunlar va bayramlar bir piyola choy ustida bepul muloqot qilish uchun yaxshi sababdir. Ekskursiyalar, hududdagi madaniy tadbirlarda ishtirok etish, tabiat qo'ynida faol hordiq chiqarish keksalarga katta zavq bag'ishlaydi, ularning kayfiyatini ko'taradi. “Oltin asr” klubi go'yo o'z uyingizda bo'lgandek kelib, hamfikrlar, do'stlar va suhbatdoshlar davrasida butun qalbingiz bilan dam olishingiz mumkin bo'lgan joy hisoblanadi. Bugungi kunda ishtirokchilar soni 53 yoshdan 68 yoshgacha bo'lgan 24 nafarni tashkil etadi”. [5] Ushbu klubni O'zbekistonda ham tashkil etilishining salbiy va ijobiy tomonlari mavjud. Xususan, o'z milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda fikr bildiradigan bo'lsam ko'pchilik keksa yoshdagi shaxslarda surunkali kasalliklar mavjudligi sababli ular jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi biroz mushkul. Agarda Yevropda yokida Amerikalik keksalarni jismonan tetikligi turli fitness klublarda faol ishtirok etishini ko'rishimiz mumkin. Keksalarni ijtimoiy himoya qilish texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Keksalarning ehtiyojlari turlicha bo'lishi mumkin sog'lig'i, ijtimoiy faolligi, psixologik holati, yolg'izlik darajasi va boshqalar. Shu sababli, texnologiyalar individual yondashuv asosida ishlab chiqiladi.

2. Kompleks yondashuv.

- ijtimoiy himoya nafaqat moddiy yordamni,
- psixologik qo'llab-quvvatlash, tibbiy xizmatlar,
- madaniy va ijtimoiy hayotga integratsiyani,
- kundalik hayotda yordam (ovqat, kiyim, harakatlanish) kabilarni ham qamrab oladi.



Date: 25th April-2025



3. Innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi. "Smart" qurilmalar: sog'liqni kuzatish (qon bosimi, yurak urishi), eslatmalar (dori ichish vaqti), xavfsizlik tizimlari (tushib ketishga qarshi signal). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keksalarning ijtimoiy tarmoqlar, video qo'ng'iroqlar orqali yaqinlari bilan muloqotda bo'lishini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

4. Profilaktik va reabilitatsion yondashuv. Kasalliklarning oldini olish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish texnologiyalari. Reabilitatsiya dasturlari: jismoniy mashqlar, fizioterapiya, psixologik reabilitatsiya.

5. Hamjamiyatga integratsiya. Keksalarni jamiyatda faol ishtirokchi sifatida ko'rish (volontyorlik, tajriba almashish, maslahat kengashlari orqali), ularni ijtimoiy izolyatsiyadan saqlash texnologiyalari.

6. Davlat va nodavlat sektorlar hamkorligi O'zbekiston Respublikasida keksalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi jadal rivojlanib, davlat tomonidan keng qamrovli choralar ko'rilmogda. [6]

Xulosa o'rnida aytishim mumkinki, O'zbekistonda keksalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi rivojlanishning muhim bosqichida turibdi va bu yo'nalishda olib borilayotgan tizimli islohotlar mamlakat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmogda. Keksalarga nisbatan ijtimoiy g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning hayot sifatini oshirish va jamiyatda teng huquqli a'zo sifatida faolligini ta'minlash orqali barqaror ijtimoiy taraqqiyotga erishish mumkin. , Prezident farmonlari va davlat dasturlari orqali keksalarga bo'lgan e'tiborning institutsional asosda yo'lga qo'yilgani, bu sohada yuksak natijalarga erishish imkonini bermogda. Shu bilan birga, mavjud tizimda ayrim kamchiliklar ham kuzatilmogda. Xususan, xizmatlar sifati va manzilliligi, hududlar bo'yicha teng taqsimlanmaganlik, ijtimoiy xizmatlar ko'lamining torligi va ularning yetarli darajada raqamlashtirilmagani dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Bu esa keksalarning ayrim ijtimoiy xizmatlardan to'liq foydalanishiga to'sqinlik qilmogda.

Kelgusida ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, manzilli yondashuvni kuchaytirish, ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini yanada rivojlantirish, ko'ngillilik harakatlarini rag'batlantirish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushb maqolamdandan kelib chiqib taklif va tavsiya sifatida, keksalarni jamiyatda ijtimoiy faolligini mo'tadilligini ta'minlash borasida ularni ham jamiyatning muhim a'zosi sifatida ularning yolg'izlik hissini oldini olish maqsadida ushbu takliflarni berib o'taman.

1. Ijtimoiy sheriklik asosida keksalar uchun kompleks xizmatlar modelini ishlab chiqish (masalan, "bir darcha" tamoyili asosidagi xizmatlar majmuasi);

2. "Faol qarilik markazlari" tashkil etish bo'yicha eksperimental model taklifi (xorijiy tajriba asosida, lekin mahalliy muhitga moslashtirilgan holda);

3. Mobil ilova yoki platforma orqali keksalar sog'lig'i, ehtiyojlari va xavfsizligi ustidan masofadan turib monitoring olib borish;

4. Keksalar uchun ixtisoslashgan reabilitatsiya markazlarini tashkil etish bo'yicha takliflarni o'z ichiga oladi. Xorij tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatmogdagi, rivojlangan

Date: 25th April-2025

davlatlarda keksalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan tizimlar kompleks yondashuv, individual ehtiyojlarga mos xizmatlar va mahalliy hamjamiyatlar ishtirokini o'z ichiga oladi. Bunday tajribalarni O'zbekistonda qo'llash, ayniqsa, uy sharoitida ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish, davlat va nodavlat sektorlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalar asosida xizmatlar ko'lamini kengaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, keksalar uchun mo'ljallangan ijtimoiy muassasalar infratuzilmasini modernizatsiya qilish va ularni insonparvar yondashuv asosida boshqarish xorijiy tajribaning muhim jihatlaridan biri sanaladi. O'zbekiston sharoitida bu imkoniyatlardan oqilona foydalanish orqali keksa avlod vakillarining hayot sifatini oshirish, ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlash uchun makur g'oya va takliflarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/350561/9789289056151-rus.pdf>
2. С.П. Пирожков, Н.Н. Сачук, М.Я. Сонин, В.Д. Шапиро и др. , исследовавшие проблемы пенсионеров в социальной структуре советского общества. Ряд фундаментальных положений геронтосоциологии выдвинут в работах современных отечественных ученых:
3. Ю.Василенко Социальная геронтология:учеб.-метод. пособие. Владивосток: Изд-во Дальневосточного университета, 2003.
4. А.Ржаненков. Базовые категории системы социальной защиты пожилых людей и инвалидов как социального института Санкт-Петербург С. 56
5. Михайлова, О. Н. [Основные направления и перспективы международного сотрудничества в геронтологии, роль международной ассоциации геронтологии.](#) : [apx. 12 апреля 2005] / О. Н. Михайлова, М. А. Забежинский, В. Н. Анисимов // Успехи геронтологии. — 2002. — Т. 3, вып. 9. — С. 258.
6. <https://ckd-magistral.yam.muzkult.ru/ZOLOTOI/>

